



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

"DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISHDA, IJRO ETUVCHI ORGANLARNING O'RNI VA AHAMIYATI"

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabalari

Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna
Davlatbek Abdiquahhorov Muzaffar o'g'li

Anotatsiya: *Ijro etuvchi organlarning tashkil etilishi va ularning rahbarlarini tayinlash va ishdan ozod etish tartibi , ushbu organ tarkibiga kiruvchi tuzilmalar , ijro etuvchi organlarning davlat boshqaruvidagi o'rni va ahamiyati haqida umumiy ma'lumot .*

Kalit so'zlar : *Vazirlar Mahkamasi , Bosh vazir , Oliy Majlis , Prezident , Senat (Yuqori palata) , Qonunchilik (Quyi palata) , ishonchsizlik votumi , hisobot , vazirliklar , davlat qo'mitalari , hokimliklar , Yangi tahrirdagi Konstitutsiya , qaror , buyruq , farmon , farmoyish , davlat strategiyalari , vakolatlar va boshqa .*

Biz bilamizki , O'zbekiston Respublikasida ham boshqa davlatlar singari hokimiyat bo'linish prinsipiga muvofiq uchga bo'linadi bu (Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 11-moddasida keltirilgan) .

11-modda.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi , ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi .

Biz hozir ushbu hokimiyatlardan , ijro etuvchi hokimiyat bilan tanishib chiqamiz .

O'zbekiston Respublikasida Ijro etuvchi hokimiyatni - Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanishi , O'zbekistonning mustaqilligi Prezident institutining vujudga kelishi bilan bog'liq. Mustaqillik arafasida sobiq Ittifoqning oxirgi yillarida Prezidentlik instituti o'rnatilib , ijro hokimiyatini mustahkamlash jarayonida hukumatni qayta tashkil qilish uchun ham samarali harakatlar amalga oshirildi.

1990-1992-yillarda Prezident lavozimi tashkil qilinib, uning ishlash mexanizmlarini shakllantirish jarayonida Prezident hokimiyati bilan shu vaqtdagi hukumat hisoblanuvchi Vazirlar Kengashi birlashtirildi va Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi .

Shu munosabat bilan Prezident Farmoni chiqarildi va Vazirlar Mahkamasining tarkibi tasdiqlandi . Mazkur farmon bilan xalq xo'jaligining turdosh tarmoqlaridan majmualar tuzilib, Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiritildi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Prezident bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining Raisi ham hisoblanadi, buning oqibatida Prezident hamda Vazirlar Mahkamasi apparati birlashtirildi.

Shu davrda Vitse-prezident lavozimi ta'sis qilinib, unga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini yuritish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik bu lavozim 1992-yil 4-yanvarda tugatildi va Bosh vazir lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazirga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini yo'naltirish, tashkil qilish vazifasiga yuklatildi.

Bu o'zgarishlar o'sha paytda amalda bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimchalar asosida rasmiylashtirildi. Konstitutsiyaning 120-moddasi quyidagi tarzda bayon qilindi: "O'zbekiston hukumati Bosh vazirdan, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlardan, mamlakat vazirlaridan, davlat qo'mitalarining raislaridan, yirik konsernlarning va birlashmalarning rahbarlaridan iborat bo'ladi".

O'zbekiston Respublikasining o'sha paytdagi Konstitutsiyasi respublika hukumati faoliyatini maxsus bobda mustahkamladi. Konstitutsiyaga asosan, Vazirlar Mahkamasi Raisi - Prezident. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishini tashkil etuvchi, unga rahbarlik qiluvchi lavozim sifatida mustahkamlandi. Vazirlar Mahkamasining tarmog'i ixchamlashtirildi.

2000-yillardan boshlab Respublikada davlat qurilishi va boshqaruv sohasida chuqur islohotlar boshlandi. Hokimiyat bo'linishi prinsipini chuqurlashtirish choralari ko'rildi. Prezident, Parlament, Vazirlar Mahkamasi vakolatlarini qayta taqsimlash zarurati vujudga keldi. 2003-yil 24-aprelda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar asosida Prezidentning Vazirlar Mahkamasi Raisi hisoblanishi haqidagi qoida Konstitutsiyadan chiqarildi. Bu bilan Bosh vazirning mavqei kuchaydi, u endi Vazirlar Mahkamasining rahbari bo'lib qoldi. Shu bilan birga, uning mas'uliyati ham kuchaydi.

Shundan keyin Vazirlar Mahkamasining mustaqilligini kengaytirish, Bosh vazir maqomini kuchaytirish ishlari davom etdi.

2005-yilda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida Birinchi Prezident davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifalar qatorida Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, ma'suliyatini kuchaytirishni ham ko'rsatdi.

2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonun asosida Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar va shu paytda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatuvchi qoidalar mustahkamlandi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Ularga asosan , Konstitutsiyadan Prezidentning ijro hokimiyati boshlig'I degan qoida chiqarib tashlandi . Bu Vazirlar Mahkamasini mustaqil ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi organ sifatida faoliyat ko'rsatishiga , Bosh vazir mavqeining , shu bilan birga , ma'suliyatining ham oshishiga olib keldi.

Prezidentning ijro hokimiyati boshlig'i vakolatining bekor qilinishi hokimiyatlar bo'linishi prinsipi kengroq qo'llash , barcha hokimiyat tuzilmalarining teng mavqega ega bo'lishi uchinchi imkoniyat yaratdi.

Birinchi Prezidentning 2010-yil 12-noyabr Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirish , shu maqsadda Konstitutsiyaga kiritilishi zarur bo'lgan qoidalar batafsil ko'rsatib berildi. Mazkur islohotning amalga oshirilishi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazirning mavqeini yanada kuchaytirish, shu bilan birga , ular mas'uliyatini oshirishni nazarda tutdi .

Konsepsiya asosida 2011-yil 18-aprelda Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritildi . Uning natijasida Konstitutsiyaning Vazirlar Mahkamasiga taalluqli 98-moddasi yangicha tahrirda bayon qilindi va Bosh vazirning parlament oldida hisob berib turishi tartibi o'rnatildi , bu Vazirlar Mahkamasi faoliyati ustida jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni nazarda tutdi . Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi o'rnatildi . Shuningdek , Vazirlar Mahkamasining mustaqilligi kengaytirildi, masalan , Prezident Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi har qanday masala yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin , degan qoida chiqarib tashlandi.

2014-yil aprelda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir vazifa va vakolatlarini yanada kengaytirdi hamda mas'uliyatini kuchaytirdi.

Bularning barchasi Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini yanada aniqlashtirib, bir tomondan , Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazirning mavqeini , vakolatlarini oshirgan bo'lsa , ikkinchi tomondan , ularning ma'suliyatini kuchaytirishga olib keldi.

Bundan tashqari , 2019-yil 10-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonuni bilan uning asosiy faoliyat yo'nalishlari va funksiyalari batafsil belgilab berilgan .

Bu hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan islohotlar . Hozirda Vazirlar Mahkamasining faliyati yanada takomillashtirilgan . 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiya misolida ko'rishimiz mumkin .



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Konstitutsiyaning 20-bobi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi deb nomlangan bo'lib , u o'z ichiga 114-119- moddalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri , uning o'rinbosarlari va vazirlardan iborat. Qoraqalqog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi .

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshiradi .

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

□ Samarali iqtisodiy, ijtimoiy , soliq va budjet siyosati amalga oshirilishi ,ilm-fan , madaniyat ,ta'lim , soliqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

□ Barqaror iqtisodiy o'sishni , makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash , kambag'allikni qisqartirish , aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish , oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash , qulay investitsiyaviy muhitni yaratish , hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo'yicha choralar ko'radi .

□ Aholini , shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

□ Atrof-muhitni muhofaza qilish , tabiiy boyliklarni va biologic xilma-xillikni saqlash , iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga , pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi.

□ Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi, oilani qo'llab-quvvatlash , mustahkamlash va himoya qilish , an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha choralar ko'radi.

□ Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlaydi.

□ Fuqarolarning iqtisodiy , ijtimoiy hamda boshqa huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi .



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

□ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari Oliy Majlis palatalari qarorlari , O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari , qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi .

□ Ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi , ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi .

□ Ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni ,qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash , ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish , davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'radi .

□ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzalarni taqdim etadi.

□ Va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy normalar doirasida va qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar korxonalar , muassasalar , tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir .

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi , biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining vakolatlari:

□ Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi , uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

□ Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi , uning qarorlarini imzolaydi .

□ Xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish olib boradi .

□ O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdor shaxslari saylangandan va organlari shakllangandan so'ng 1 oy ichida yoki Bosh vazir lavozimidan ozod etilganidan keyin yoxud Bosh vazir , Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibi iste'foga chiqqanidan keyin 1 oy ichida Qonunchilik palatasi ko'rib chiqishi va ma'qullashi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir nomzodini taqdimnoma kiritilgan kundan e'tiboran 10 kun ichida ko'rib chiqadi .

Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini taqdim etadi .

Bosh vazir nomzodi uning uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlarining umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda ma'qullangan hisoblanadi.

Bosh vazir lavozimiga taqdim etilgan nomzod 3 marta rad etilgan taqdirda , O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli .

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari ularning nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullangandan keyin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi .

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni , O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibini yoki a'zosini iste'foga chiqarishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zosining o'z faoliyatiga oid masalalar yuzasidan hisobotni eshitishga haqli. Vazirlar Mahkamasi a'zosining hisobotini eshitishga ko'ra Qonunchilik palatasi uni iste'foga chiqarish to'g'risidagi taklifini O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ko'rib chiqish uchun kiritishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolari parlament so'rovlariga va Qonunchilik palatasi deputatining , Senat a'zosining so'rovlariga qonunda belgilangan tartibda javob berishi shart .

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat , tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi.

Hokimlarning vakolat muddati - 5 yil . Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shaharning hokimi etib tayinlanishi mumkin emas. Hokimlarning faoliyatini tashkil etish tartibi qonun bilan belgilanadi.



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024”

Viloyat, tuman, shaharlar hokimlarining vakolatlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajarish.
- Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- Mahalliy budjetni shakillantirish va ijro etish.
- Shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Yuqorida biz siz bilan qisman bo‘lsada ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati bilan tanishdik. O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyati yuqoridagi faoliyatlarni amalga oshiradi va u davlat boshqaruvida juda muhim o‘rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirdagi)
2. Lex.uz
3. Konstitutsiyaviy huquq (O.T.Husanov)
4. “Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida” gi qonun
5. Davlat va Huquq nazariyasi (X.T.Odilqoriyev)
6. TSUL library